




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT



2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi


Korxona va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1- noyabr holatiga ko'ra

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- noyabr holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 24,0 mingtani tashkil etdi, ulardan 20,1 mingtasi kichik korxona va mikrofirmalar.


Shuningdek, ushbu davrga 33,0 mingta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar 2024- yil yanvar-oktabr holatiga, birlikda

2024- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2 924 tani tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha eng ko‘p tashkil etilgan korxona va tashkilotlar quyidagicha, Jumladan: Nukus shahrida (745 ta), Beruniy (305 ta), To‘rtko‘l (273 ta) Ellikqal’a (250 ta) tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko‘rsatkichni Savdo (1 019 tani) hamda Sanoat (502 tani) tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	745	Chimboy	103
Beruniy	305	Qonliko‘l	86
To‘rtko‘l	273	Mo‘ynoq	85
Ellikqal’a	250	Kegeyli	82
Amudaryo	231	Taxiatosh	69
Qo‘ng‘irot	170	Bo‘zotov	70
Xo‘jayli	134	Qarao‘zak	51
Shumanay	116	Textako‘pir	49
Nukus	105		


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida (birlikda)




2024- yil 1- noyabr holatiga

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- noyabr holatiga 24,0 mingtaga yetdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 30,2 %, sanoatda – 12,8 %, Yashash va ovqatlanish -5,5 %, qurilish -7,0 % boshqa turlar – 25,0 %, hududiy kesimda eng ko'p Nukus shahri 25,2 %, To'rtko'l 10,7 %, Beruniy 8,9 % tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni
(birlikda)Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Nukus sh.	6061	Kegeyli	793
To'rtko'l	2568	Taxiatosh	722
Beruniy	2132	Qonliko'l	666
Amudaryo	2059	Qarao'zak	662
Ellikqal'a	1759	Mo'ynoq	637
Qo'ng'iro't	1390	Shumanay	547
Xo'jayli	1217	Taxtakopir	430
Chimboy	1068	Bo'zotov	416
Nukus	907		


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)

2024- yil 1- noyabr holatiga

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik (tijorat) subyektlari soni 2024- yil 1- noyabr holatiga 20,2 mingtaga yetdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 35,8 %, tashish va saqlash – 4,3 %, Sanoat – 15,2 %, Sog'liqni saqlash – 2,1 %, boshqa turlari – 12,0 % ni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni
(birlikda)Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Nukus sh.	5102	Kegeyli	655
To'rtko'l	2303	Taxiatosh	596
Beruniy	1837	Qonliko'l	552
Amudaryo	1761	Qarao'zak	527
Ellikqal'a	1500	Mo'ynoq	531
Qo'ng'iro't	1149	Shumanay	425
Xo'jayli	1029	Bo'zotov	343
Chimboy	861	Taxtak'o'pir	321
Nukus	759		

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)

2024- yil yanvar-oktabr holatiga

Mamlakat iqtisodiyoti “sog'lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir. Shunda, 2024- yil yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 73 tadan 71 tani, yashash va ovqatlanish bo'yicha – 286 tadan 183 tani, sanoat sohalarida 1 397 tadan 501 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	696	Chimboy	97
Beruniv	299	Qonliko'l	83
To'rtko'l	267	Mo'ynoq	81
Ellikqal'a	241	Kegeyli	77
Amudaryo	224	Taxiatosh	66
Qo'ng'iro't	161	Bo'zotov	66
Xo'jayli	124	Taxtakopir	47
Shumanay	113	Qarao'zak	45
Nukus	97		


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




2024- yil 1- noyabr holatiga

Hududlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Nukus shahrida (25,2 %), To'rtko'l (11,4 %), Beruniy (9,1 %) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Yillar kesimida soni
(birlikda)Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Nukus sh.	5080	Kegeyli	651
To'rtko'l	2296	Taxiatosh	590
Beruniy	1831	Qonliko'l	550
Amudaryo	1759	Qorao'zak	526
Ellikqal'a	1495	Mo'ynoq	529
Qo'ng'iro't	1145	Shumanay	424
Xo'jayli	1024	Bo'zotov	342
Chimboy	857	Taxtakopir	319
Nukus	759		

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar 2024- yil 1- noyabr holatiga


O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Amudaryo	364
To‘rtko‘l	303
Nukus	288
Beruniy	251
Kegeyli	169
Qo‘ng‘irot	168
Ellikqal’a	154
Qonliko‘l	156
Chimboy	150
Xo‘jayli	137
Mo‘ynoq	110
Qorao‘zak	111
Bo‘zotov	103
Nukus sh.	95
Taxtako‘pir	81
Taxiatosh	87
Shomanay	84

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- noyabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 12,8 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 91,3 foizini ishlab chiqarish sanoati, 5,3 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Nukus sh.	585
Amudaryo	323
To'rtko'l	302
Ellikqal'a	281
Beruniy	266
Qo'ng'irot	193
Xo'jayli	171
Chimboy	158
Qorao'zak	130
Mo'ynoq	127
Taxiatosh	108
Nukus	102
Kegeyli	89
Taxtako'pir	76
Qonliko'l	70
Shumanay	57
Bo'zatov	48

Yillar kesimida soni
(birlikda)



2 816

Ishlab chiqarish
sanoati



165

tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



84

Suv bilan ta'minlash kanalizat-
siya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish



21

Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash




2024- yil 1- noyabr holatiga




O'zbekistonda qurilish sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sohasining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 55,1 % ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni 27,7 % ulushni
- fuqarolik obyektlarini qurilish yo'nalishidagi korxonalar soni esa 17,2 % ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Yillar kesimida soni
(birlikda)




291

Fuqarolik
obyektlarini qurish

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

468



931

Bino va inshootlar
qurish

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 7 249 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 26,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,9 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	1934
To'rtko'l	908
Beruniy	753
Amudaryo	611
Ellikqal'a	542
Qo'ng'iro't	367
Xo'jayli	382
Chimboy	324
Taxiatosh	229
Kegeyli	201
Qonliko'l	187
Shumanay	189
Nukus	163
Mo'ynoq	150
Qorao'zak	126
Bo'zatov	95
Taxtako'pir	92

Yillar kesimida soni (birlikda)



790

Avtomobil
va motosikllarning ulgurji va chakana
savdosi va ularni ta'mirlash

Avtomobil va motosikllar
savdosidan tashqari ulgurji savdo

1 886

4 577

Avtomobil va motosikllar
savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- noyabr holatiga


2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 1 323 taga yetdi.

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,5 % ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,5 % ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida (birlikda)

Nukus sh.	360
Amudaryo	164
To'rtko'l	141
Ellikqal'a	117
Qo'ng'irot	103
Beruniy	103
Xo'jayli	51
Chimboy	52
Kegayli	34
Mo'ynoq	35
Qorao'zak	35
Qonliko'l	34
Taxiatosh	26
Shomanay	22
Nukus	22
Bo'zatov	12
Taxtakopir	12

Yillar kesimida (birlikda)



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

2024- yil 1- noyabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 62,1 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 37,9 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,8 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	224	Xo'jayli	18
Beruniy	35	Taxiatosh	9
Chimboy	30	Mo'ynoq	10
Qo'ng'iro't	27	Qorao'zak	8
To'rtko'l	24	Qonliko'l	8
Amudaryo	21	Taxtakopir	6
Ellikqala	20	Shomanay	6
Kegeyli	17	Bo'zotov	3
Nukus	17		

Yillar kesimida soni (birlikda)



	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	198
	Noshirlik faoliyati	90
	Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	12

107	Aloqa	
70	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat	
6	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish	

2024- yil 1- noyabr holatiga

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 434 tasi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

- sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarining jamiga nisbati 95,9 foizni;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni jamiga nisbati 2,3 foizni;
- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida
(birlikda)

Nukus sh.	190
Beruniy	44
Ellikqal'a	42
Amudaryo	40
Qo'ng'iro't	33
To'rtko'l	33
Xo'jayli	32
Taxiatosh	18
Chimboy	19
Kegeyli	16
Nukus	15
Taxtakopir	8
Qonliko'l	5
Mo'ynoq	5
Qarao'zak	4
Shumanay	4
Bo'zotov	1

Yillar kesimida
(birlikda)



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Nukus sh.	283
To'rtko'l	163
Qo'ng'iro't	67
Beruniy	62
Amudaryo	53
Ellikqal'a	52
Xo'jayli	39
Chimboy	32
Kegeyli	23
Mo'ynoq	21
Qorao'zak	18
Nukus	18
Taxiatosh	13
Bo'zotov	9
Taxtako'pir	7
Shumanay	6
Qonliko'l	5


2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami respublikadagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 83,8 foizni tashkil etdi.

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida tashish va saqlash xizmatlari faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,5 foizni tashkil etdi.

Pochta va kuryerlik xizmatlari faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 1,7 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**
2024- yil 1- noyabr holatiga

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Tadbirkorlik
subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

15 882 mas’uliyati cheklangan
jamiyat

78,4%

1 956 xususiy
korxonalar

9,7%

2 056 oilaviy
korxonalar

10,1%

19 aksiyadorlik
jamiyati

0,1 %


338 boshqalar

1,7 %

(2024-yil yanvar-oktabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	646
Beruniy	262
Amudaryo	200
Ellikqal'a	182
To'rtko'l	175
Qo'ng'iro't	136
Shumanay	97
Xo'jayli	92
Chimboy	89

Nukus	82
Kegeyli	75
Bo'zotov	66
Qonliko'l	66
Mo'ynoq	62
Taxiatosh	52
Qarao'zak	36
Taxtakopir	31

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Amaldagi 20,2 mingta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024- yil 1- noyabr holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 15,8 mingtani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 34,8 foiz, sanoat – 14,1 foiz, qurilish – 9,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 14,6 foiz.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Nukus sh.	4381
To'rtko'l	1592
Beruniy	1481
Amudaryo	1336
Ellikqal'a	986
Qo'ng'iro't	847
Xo'jayli	827
Chimboy	746
Nukus	655

Kegeyli	576
Qarao'zak	453
Mo'ynoq	448
Taxiatosh	400
Qonliko'l	329
Bo'zotov	314
Shumanay	301
Taxtakopir	210

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

2024- yil 1- noyabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Nukus shahrida – 395 ta, Ellikqal'a – 302 ta va To'rtko'l – 188 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 875 ta, sanoat – 238 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 191 ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 131 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	395
Ellikqal'a	302
To'rtko'l	188
Beruniy	180
Qo'ng'irot	169
Amudaryo	108
Taxiatosh	97
Shumanay	95
Qonliko'l	77

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Chimboy	76
Xo'jayli	73
Kegeyli	43
Qarao'zak	42
Taxtakopir	37
Mo'ynoq	39
Nukus	27
Bo'zotov	8

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 2 056 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 40,6 foiz, sanoat – 24,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 16,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 5,4 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

To'rtko'l	491
Amudaryo	289
Nukus sh.	287
Ellikqal'a	189
Beruniy	147
Qonliko'l	113
Xo'jayli	109
Qo'ng'iro't	94
Taxiatosh	81

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Nukus	62
Taxtakopir	58
Mo'ynoq	35
Shumanay	27
Qarao'zak	22
Kegeyli	22
Chimboy	19
Bo'zotov	11

(2024-yil 1- noyabr holatiga)


Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Ellikqal'a (11,6 foiz), Beruniy (11,4 foiz) va To'rtko'l (9,2 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Ellikqal'a	567
Beruniy	558
To'rtko'l	450
Amudaryo	380
Qarao'zak	367
Chimboy	357
Nukus	358
Qonliko'l	334
Kegeyli	324
Shumanay	294
Qo'ng'iro't	258
Xo'jayli	210
Taxtakopir	206
Taxiatosh	80
Mo'ynoq	77
Bo'zotov	59
Nukus sh.	1

Yillar kesimida soni (birlikda)



4 664

Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va bu
sohada xizmat ko'rsatish



Baliq ovlash va
akvakultura

216

O'rmonchilik va
yog'och tayyorlash




(2024- yil 1- noyabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 176 ta korxonalardan 74 tasi qo'shma korxonalar va 102 tasi chet el korxonalari hisobiga to'g'ri keldi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	46
Mo'ynoq	28
Qo'ng'iro't	15
To'rtko'l	10
Amudaryo	9
Nukus	10
Bo'zotov	7
Qarao'zak	7
Qonliko'l	7

Beruniy	6
Taxiatosh	6
Xo'jayli	7
Kegeyli	5
Ellikqal'a	5
Taxtakopir	4
Shumanay	3
Chimboy	1

2024- yil 1- noyabr holatiga

Qoraqalpog'istonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar 176 ta bo'lib shundan 74 tasi qo'shma va 102 tasi chet el korxonalari hisobiga to'g'ri keldi.



Mamlakatimizda investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

2024- yil 1- noyabr holatiga xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11 taga ko'payib, 176 tani tashkil etdi.

qo'shma korxonalar

Chet el korxonalari

19	Nukus sh.	27	3	Beruniy	3
10	Mo'ynoq	18	6	Bo'zotov	1
6	Qo'ng'iro't	9	4	Xo'jayli	3
2	Qonliko'l	5	2	Amudaryo	7
3	Nukus	7	1	Taxtak'o'pir	3
4	Qarao'zak	3	1	Chimboy	-
3	Kegeyli	2	-	Shumanay	3
1	Taxiatosh	5	3	Ellikqal'a	2
6	To'rtko'l	4			


So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2024-yil 1- noyabr holatiga,)

qo'shma korxonalar

chet el korxonalari



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan
yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul
olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Qoraqalpog'iston
respublikasi statistika
boshqarmasi
Tel.: 61 222-78-37

PRESS-RELIZ

